


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE CONCEPT OF "TIME" IN ENGLISH AND UZBEK WORKS OF ART AND ITS LINGUISTIC AND CULTURAL INTERPRETATION****Mohinur Nizomova**

Doctor of philosophy (PhD), associate professor, head of the department
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan

Mohinur Rahmonova

Master's student
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Linguistic culture, concept of time, mentality, linguistic affiliation, cultural studies, anthropological paradigm, monograph, figurative thinking, philosophy, Neo-Humboldians, era, moment, lingvokulturrema, linguistic meaning, verbalization of the world.

Received: 26.09.23**Accepted:** 28.09.23**Published:** 30.09.23

Abstract: This article discusses both theoretical and research foundations of linguistic and cultural studies. The interrelationships of culture and language, the influence of cultural traditions in each nation on linguistics, the formation of any concepts and their root meanings in the consciousness of mankind, having different points of view in different mentalities, are highlighted. The author researched and analyzed specific aspects of the theoretical basis of linguistic and cultural studies based on the available scientific literature, relying on linguistic data. Analyzing the concept of time based on life events, he gave examples of situations in which it is used in what sense. The similarities and differences of the concept of time are shown in English and Uzbek cultures.

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIYY ASARLARIDA “VAQT” KONSEPTI TUSHUNCHASI VA LINGVOMADANIY TALQINI**Mohinur Nizomova**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, kafedra mudiri
Qarshi davlat univeristeti
Qarshi, O‘zbekiston

Mohinur Rahmonova

Magistratura talabasi
Qarshi davlat universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, vaqt konsepti, mentalitet, lisoniy mansublik, madaniyatshunoslik, antropologik paradigma, monografiya, obrazli tafakkur, falsafa, Neogumboldchilar, davr, lahza, lingvokulturema, lisoniy ma'no, olamni verballashtirish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvomadaniy tadqiqotlarning nazariy hamda tadqiqiy asoslari haqida so'z boradi. Madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar, har bir millatda madaniy urf-odatlarining lingvistikaga ta'siri, insoniyat ongida har qanday konseptning shakllanishi va turli mentalitetda turlicha qarashlarga ega bo'lgan tub ma'nolari yoritib beriladi. Muallif lingvistik ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida lingvomadaniy tadqiqotlarning nazariy asoslari bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan. Vaqt konseptini hayotiy voqealar asosida tahlil qilib, qanaqa vaziyatlarda qay ma'noda ishlatilish holatlarini misol qilib bergan. Ingliz va o'zbek madaniyatida vaqt tushunchasining o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib o'tilgan.

КОНЦЕПТ «ВРЕМЯ» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА И ЕГО ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Мохинур Низомова

*доктор философских наук (PhD), доцент, заведующий кафедрой
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан*

Мохинур Рахмонова

*студент магистратуры
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Лингвистическая культура, концепция времени, mentalitet, языковая принадлежность, культурология, антропологическая парадигма, монография, образное мышление, философия, неогумбольдианцы, эпоха, момент, лингвокультурема, языковой смысл, вербализация мира.

Аннотация: В этой статье рассматриваются как теоретические, так и исследовательские основы лингвокультурных исследований. Освещаются взаимосвязи культуры и языка, влияние культурных традиций в каждой нации на лингвистику, формирование в сознании человечества каких-либо понятий и их коренных значений, имеющих разные точки зрения в разных mentalitetax. Автор исследовал и анализировал специфические аспекты теоретической основы лингвокультурных исследований на основе имеющейся научной литературы, опираясь на лингвистические данные. Анализируя понятие времени на основе жизненных

событий, он привел примеры того, в каких ситуациях оно используется в каком смысле. В английской и узбекской культурах показаны сходства и различия концепции времени.

KIRISH

XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan ma’ daniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo’ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo’nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazaryaning ildizi V. Fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Lingvomadaniyat sohasida ko’plab izlanishlar olib borib, jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A. Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

- 1) fan shakllanishiga turtki bo’lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi
- 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
- 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo’nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o’rganuvchi fan bo’lib, o’zaro aloqadorlikda bo’lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog’i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo’lgan inson to’g’risidagi antropologik paradigmaga xos bo’lgan yutuqlar majmuasidir” Shu yerda antropologik paradigmaga aniqlik kiritib ketadigan bo’lsak, Antroposentrizmning o’zi yangi fan sifatida struktural lingvistikadan so’ng namoyon bo’ldi. Bunda Antroposentrizm paradigma hisoblanib u yangi fan, yangi nazariyalarni o’z ichiga olib, fan sifatida “Til va Inson”ni o’rganish markazi qilib ko’rsatdi.

ASOSIY QISM

Til va madaniyatning bog’liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog’liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. O’zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo’nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o’zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O’zbek tilida lingvokulturologik yo’nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab”, "O’xshatishlar - obrazli tafakkur maxsuli", N.Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi, “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati”ni belgilash mumkin.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o'zining "Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri" kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning "turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi", "tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak" kabi fikrlari keng tarqalgan. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko'radi. Demak, tilda madaniy o'ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi.

V.Gumboldtning g'oyalari XIX-XX asrlardan neogumboldtchilar tomonidan rivojlantirildi. A.A.Potebnya tilni faoliyat sifatida talqin etdi. L.Vaysgerber, X. Glins, X. Xols XX asr o'rtalarida fikrlash mundarijasining uzilishi va fikrlarning mantiqiy qatori tilga bog'liq ekanligi haqidagi muammoni ko'tarib chiqdilar. Neogumboldtchilar tilning ichki mundarijasiga alohida e'tibor qaratdilar, turli tillarning semantik jihatlarini tekshirib, o'xshash va farqli jihatlarini aniqladilar. L.Vaysberger "olamni verballashtirish" tushunchasini olib kirdi. Unga "dunyoni til orqali anglash jarayoni va tafakkur obyektiga aylantirish" deb ta'rif berdi. Shuningdek, olim "yangi grammatika"ni yaratish vaqti kelganligini ta'kidladi. Bu soha tilning mazmuniy tomoniga qaratilgan bo'lishi va tilni "harakatdagi kuch" sifatida baholashi kerak edi.

Amerika tilshunoslari E.Sepir va B.L.Uorf lisoniy mansublik gipotezasini ilgari surdilar. Unga ko'ra til bilish jarayonida eng asosiy rolni o'ynaydi. Shimoliy Amerika hindulari tilini o'rganish natijasida olimlar til kategoriyalari fikrlash darajasiga ham ta'sir qiladi, degan xulosaga keldilar. Lisoniy mansublik gipotezasiga ko'ra, turli tillarda turli kategoriyalarning uchrashi shu til egalari borliqni turlicha konseptuallashtirishlarini bildiradi. XX asr davomida mazkur olimlarning fikrlari turli tanqid va qarshiliklarga duch keldi. Hozirgi kunda bu yo'nalish yana tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. XX asr o'rtalarida AQSH tilshunosi D.Xaymz "til va nutqni antropologik planda o'rganish"ning nazariy va metodologik asoslarini yaratdi. U "tilshunoslikning vazifasi til haqidagi bilimlarni til nuqtai nazaridan tushuntirish, antropologiyaning vazifasi esa til haqidagi bilimlarni inson nuqtai nazaridan uzatishdir" degan qarashni ilgari suradi.

Tadqiqotda lingvokulturologiya lingvo o'lkashunoslik sohasining nazariy asosi sifatida tadqiq etiladi, sohaga "til va madaniyat munosabatlari va aloqalarini tilni vazifalarida tekshiruvchi va bu jarayonni tizimli metodlar va zamonaviy yo'nalish, madaniy qoidalarga ko'ra birliklarning lisoniy va nolisoniy (madaniy) mundarijasiga jamlab, bir butun tizimi sifatida aks ettiruvchi kompleks bilimlar majmui" deb ta'rif beradi.

Lingvokmadaniyatning asosiy o'rganish obyekti sifatida "til va madaniyatning o'zaro aloqaga kirishgan vaqtdagi o'zaro bog'liqligi va bu munosabatning bir butun sistem holatda talqin qilish", fanning predmeti esa, "jamiyat turmushining til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllari", "olamning lisoniy manzarasi"ni hosil qiluvchi barcha narsadir deb baholanadi.

V.V.Vorobyov lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi – lingvokulturema tushunchasini olib kiradi va unga "lisoniy va nolisoniy (tushuncha va predmet) mazmunning dialektik birligi" deb ta'riflaydi. So'zning lingvokulturemadan farqini esa A.A.Potebnyaning "so'zning yaqin va uzoq ma'nosi" tushunchasi orqali izohlaydi.

Lingvokulturema so'zdan farqli ravishda birmuncha murakkab tuzilishga ega: uning mazmun plani ikkiga: lisoniy ma'no va madaniy mazmunga bo'linadi. Bu birlik uni yuzaga keltirgan mafkuraviy kontekst tugamaguncha yashayveradi". Birlik so'z va davomiylikdagi matn sifatida ifodalanishi mumkin. V.V.Krasnkh o'zining «Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология» nomli ishida lingvokulturologiyaga "tilda va diskursda madaniyatning namoyon bo'lishi va aks etishini o'rganuvchi fan bo'lib, dunyoning milliy manzarasi, lisoniy idrok, ruhiy-lisoniy yig'indining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan bevosita bog'liq bo'ladi" deb ta'rif beradi."

Volgograd maktabi vakillari V.I. Karasik, E.I. Sheygallar asosiy e'tiborni til va madaniyatni qiyoslashga qaratadilar. Lingvokulturologiyaning asosiy birligi sifatida madaniy konseptni oladilar. Bu tushuncha aniq va mavhum nomlarning mundarijasini o'z ichiga oladigan "ostki ma'no" bo'lib, mazkur xalq madaniyati haqida qo'shimcha ma'lumot olishni talab qiladi.

Mualliflar etnonimlarning lingvokulturologik potensialini o'rganib chiqadilar. Tildagi madaniy belgilarni o'rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Frazeologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda mumtoz adabiyot namunalariga murojaat etish kuzatiladi.

E.I.Sheygal va V.A. Buryakovskaya lingvokulturologiyani "olam konseptual manzarasining alohida obyektlari va akslanuvchi obyekt tomonidan ularning jamoa ongi hamda tilda idrok qilinishi" deb ta'riflaydilar. Bunga misol qilib keltiradigan bo'lsak: "Non" konsepti turli millatlarda turlicha talqin qilinadi va urf-odatlardan kelib chiqqan holda alohida ma'no beradi. O'zbeklar uchun "Non" muqaddas hisoblanib, qadim zamonlardan non haqida rivoyatlar, maqol-matallar xalq orasida tildan-tilga o'tib keladi. Non deganda biz o'zbek xalqining ko'z oldiga eng avvalo tandirda yopilgan shirmoy non, yoqimli hidi butun uyda taraladigan qip-qizil kulcha non, yog'li patir, jazli non, yong'oqli non kabi non turlari keladi. Ota-bobolarimiz nonni o'zgacha

ehtiromlar bilan qabul qilishgan va bu narsa bizning davrgacha saqlanib qolgan. “Nonning urvog‘i ham non”, “Nonni hor qilma” kabi iboralar bilan tasvirlangan. Ruslarda esa non tushunchasi “Karavay”, “buxanka”, “Cherniy xleb” kabi atamalarda namoyon bo‘ladi. Xitoy xalqi esa nonni guruchdan tayyorlangan pirog sifatida tushunishadi, ularda bizning nonlarimizga teng keladigan, uni o‘rnini bosadigan boshqa non turi yo‘q chunki.

Til, madaniyat, etnos (xalq) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlar fanlararo muammo bo‘lib, uni hal qilish bir qancha fanlarning - falsafa va sotsiologiyadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha - birgalikdagi sa‘y-harakatlari bilan bog‘liq. Jumladan, milliy til tafakkuri masalalari - bu lingvistik falsafaning bir tarmog‘idir; ijtimoiy yoki guruhlararo axborot almashinuvini til aspektida o‘rganish psixolingvistika tadqiqot doirasiga kiradi. Til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: U madaniyatning ichida rivojlanadi va madaniyatning ifodachisidir.

Shunday ekan, lingvokulturologiya – bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy qadriyatlar, an‘ana, urf-odatlarining rivojlanishi, shakllanishi aynan shu urf odatlarning til bilan chambarchas bog‘liqligini o‘rganuvchi tilshunoslik tarmog‘i hisoblanadi.

Har bir millat o‘zida ma‘lum bir milliy an‘analarni aks ettiradi. Ya‘ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an‘analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma‘noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma‘lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan, biz yuqorida aytib o‘tgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, lingvomadaniyatshunoslikda bir xil konsept turli xil ma‘nolarni anglatishi mumkin. Har bir xalqning o‘ziga tegishli urf-odatlar, jargonlari va konseptlarni ishlatilish uslublari bor. Biz “Vaqt” konseptini ingliz va o‘zbek tillarida qiyoslab qaysi holatda qanaqa ma‘noda ishlatilishini ko‘rib chiqamiz. Har bir konseptni alohida guruhlariga bo‘lib, foydalanish vaziyatiga qarab, madaniyatga bog‘lab, xalqning fikrlash doirasidan kelib chiqib qo‘llash mumkin. “Vaqt” tushunchasi ingliz va o‘zbek tillarida bir xil semantik tuzilishga ega universal tushunchadir. Ushbu tuzilma davomiylilik qiymatlariga asoslangan yadro-periferik modelga amal qiladi. Yaqin atrof “vaqt davri”, “moment”, “sikl” qiymatlari, “hozirgi”, “o‘tmish” va “kelajak” kontseptsiyalari bilan ifodalanadi. Vaqtning siklik tizimli tashkil etilishi yaqin atrof-muhit darajasida “inson hayoti” (yoshi), “tabiat hayoti” (fasllar) qadriyatlari bilan ifodalanadi. “Moment” ning yaqin atrofi “boshlanishi”, “oxiri” sub tushunchalari bilan ifodalanadi. “Vaqt” so‘zining potentsial semalarini va vaqt subkontseptsiyalarining so‘z atamalarini tahlil qilish bizga

boshqa tushunchalar tomonidan shakllantirilgan tushunchaning uzoq chegarasini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Masalan- O'zbek va ingliz tillarida vaqt so'zini turli ma'nolarda ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz:, tarixiy voqealarni shakllantirishda, kundalik hayotda vaqtni aniqlashda, diniy marosimlar bilan bog'lab, xotiralarni eslab, tabiat bilan bog'liq holatlarda, madaniy holatlarda, obyektiv vaziyatlarda, moliyaviy tomondan vaqt ma'nosiga urg'u berganimizda, maqollar va iboralarda turli tushunchalarni anglatishida foydalaniladi. Vaqt bizni o'rab olgan borliqdir. U bizning dunyodagi tajribamizni belgilaydi, har bir ish soatimizda aks etadi. Vaqt bizning ongli tajribamizning asosidir. Ammo tanish bo'lganidek, vaqt ham juda sirli. Biz uni ko'ra olmaymiz, eshita olmaymiz, hidlay olmaymiz, tatib ko'rmaymiz yoki tegmaymiz. Shunga qaramay, biz uni o'tib borayotgan davr sifatida sezib - hech bo'lmaganda uni his qilamiz deb o'ylaymiz. Shoirlar, yozuvchilar, faylasuflar va olimlar asrlar davomida vaqt bilan kurashib kelganlari hech birimizga sir emas.

Diniy qarashlarda vaqt tushunchasi:

Biz aytganimizdek vaqtni diniy qarashlar bilan bog'laydigan bo'lsak, har bir din kelib chiqishidan qat'iy nazar uzoq ming yillik tarixga ega va bu albatta vaqtga borib taqaladi. Shamaniylik davrining ilk kunlaridanoq miloddan avvalgi 15, 000-11, 600 yillarda homo-diniylik, ko'mish marosimlari amalga oshirilgan bo'lib, insoniyat o'sha vaqtlardan o'limdan keyingi hayot va o'limgacha bo'lgan hayot o'rtasidagi vaqt, davr haqida ko'plab baxs munozaralar olib borishgan. O'sha vaqtlardan boshlab, boqiylik, insoniyat o'limidan keyingi hayot haqida tushunchalar paydo bo'ladi. Boqiy dunyo degan qarashlar ham shundan kelib chiqqan bo'lib – abadiylik, tunganmas, cheksiz ma'nolarini anglatadi. Qadimgi fors tilida ishlatilgan foni so'zi vaqtinchalik, o'tib ketadigan, bir zumlik degan ma'noda kelsa, Boqiy-abadiyat, cheksiz, tunganmas degan ma'noni beradi. Bir foni so'zining o'zida vatinchalik, bir zumlik, bir lahzalik degan konseptlar paydo bo'ladi, biroq hammasining asl tag ma'nosida vaqt tushunchasi yotadi. Diniy qarashlarni oladigan bo'lsak, islom dinida ham ko'plab vaqt konseptlari turli so'zlar bilan ifoda etilgan. Almisoq so'zi- qadim, eski ma'nosini berib aslida shu qadim so'zining o'zi ham vaqt tushunchasida keladi. Qadimdan ota-bobolarimiz vaqtni quyosh chiqish, botishiga qarab belgilashgan va buni 5 mahal namoz o'qiganlaridagi namoz vaqtlari bilan ham aniqlashgan. Masalan Bomdod, peshin, asr, shom va xufton namozlarini vaqt sifatida qo'llasak ham bo'ladi. Bomdod so'zining o'zi tojikchadan erta tong, sahar ma'nolarini anglatadi. Shu bilan erta tongda o'qiladigan namozni anglatib, vaqt sifatida sahar, tong mahalini bildiradi. Peshin namozi ham huddi shu tariqa peshin vaqti, tush paytini bildiradi. Kunlardan bir kun peshin chog'i yosh yozuvchi Abe qirolik bog'iga sayrga keldi.(Arkadiy Averchenko- So'qirlar) Yoshi ulug'larimiz shomda uxlamaslik kerakligini ko'plab ta'kidlashadi bizga. Bu yerda shom so'zi quyosh botadigan

vaqtni anglatadi va bu ham inson ongida bir ma'no kasb etadigan vaqt konseptiga misol bo'la oladi.

Tarixiy voqea hodisalarni tasvirlaganimizda ham vaqt konseptining turli ma'nolaridan foydalanamiz. Masalan: Qadimda, o'sha zamonlarda, eski paytlarda, o'tgan davrlarda, uzoq tarixda, "Grosha va Florina" davri, o'rta asrlarda, Muzlik davri, Temuriylar davrida, Varvarlar davri va hokazo. Bu yerda keltirilgan barcha davrlar vaqt hisobini ko'rsatadi va har birining boshlanish davri va tugash davri bo'lib tarixda qaysidir vaqt mobaynida qanaqadir voqea hodisalar ro'y berganligi haqida xabar beradi.

Qadim o'tgan zamonda chol va kampir yashagan ekan. Bu yerda qadim so'zi ko'p yillar avval, bir necha asrlar oldin degan ma'nolarda kelgan. O'sha paytlarda, o'sha vaqtlarda deb biz boshimizdan kechirgan biror bir voqea, xotiralimiz haqida eslaganimizda foydalansak bo'ladi. Bolaligimiz juda ham chiroyli, beg'ubor xotiralarga to'la bo'lgan. O'sha vaqtlarni yuzimizda tabassum bilan xotirlamaslikni iloji yo'q. Bu yerdagi o'sha vaqtlar iborasi- bolalik, yoshlik vaqtlarini bildiradi. Temuriylar davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Bu misolda Temuriylar davri deb davlatni Amir Temur boshqargan vaqtlar nazarda tutib aytilgan va asl ma'nosi vaqt sifatida kelgan. Usmonli imperiyasi 1299-1922 yilgacha davom etib, bu davrlarda imperiya Turk imperiyasi yoki Turkiya deb atalgan. Bu davrlarda deb aytib o'tilgan jumla aynan davlatni Usmonli Turklar boshqargan vaqtni anglatib kelyapti. Yerning o'tmishda kamida to'rta yirik muzlik davri bo'lgan. Eng erta gipotezalangan muzlik davri, Xuroniya, taxminan 2,7 - 2,3 milliard yil oldin, Proterozoy davrining boshida sodir bo'lgan. Kichik muzlik davri, And-Sahara, 460 dan 430 million yil oldin, kech Ordovik va Silur davrida sodir bo'lgan. Bu misolda ko'rib turganimizdek yerning muzlash vaqti keltirib o'tilgan ammo Muzlik vaqti emas, Muzlik davri deya nom berilgan. Davr-so'zi esa vaqt ma'nosini anglatga ham, ushbu so'z birikmasida jarangdorlikni, ma'noviy bo'yoqdorlikni oshirib kelgan.

She'riyatda vaqt tushunchasi. Vaqt konseptini ba'zi bir she'rlarda shoirlarimiz on, lahza, dam, nafas, fursat kabi so'zlar bilan ham ifoda etib kelishgan:

Sen bilan o'tgan har kun bayram — bazm,

Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi. (Muhammad Yusuf)

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik

Ba'zida bir nafas olgulik muddat –

Ming yulduz soʻnishi uchun yetgulik
Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal
Umrдан oʻtajak har lahza uchun
Qudratli qoʻl bilan qoʻyaylik haykal. (Gʻofur Gʻulom)

Ushbu sheʼrda dominant soʻz va dominant tushuncha — lahza. Unda qadam-baqadam lahza va unga maʼnodosh soʻzlar fursat, nafas, dam, on, sekund uzoq vaqtga (mangulik, cheksizlik qadar) baqamti qoʻyilib, lahzaning qadr-qimmatini koʻrsatiladi. Har bir qatorda vaqt konsepti turli koʻrinishlarda keltirib oʻtiladi va bu sheʼrni oʻqiganimizda vaqtni turlicha anglab yetamiz. Lahza uchun qoʻyilgan haykalni lahzaga qoʻyilgan haykal deb ham talqin qilish mumkin. Lahzaga haykal qoʻyish uni toʻxtatishga urinish, hech boʻlmasa, shunga ilinj demakdir. Ushbu nuqtada “Vaqt” sheʼri Gyotening “Faust” tragediyasi bilan fikr-gʻoya jihatidan kesishadi. Faustning Mefistofel, iblis bilan tuzgan shartnomasi aynan lahzaga oid edi. Vaqt” sheʼrida esa “Umrдан oʻtajak har lahza uchun” haykal qoʻyishga daʼvat etiladi. Bu insonni tinimsiz ijodga, yaratishga, lahzani boʻysundirishga undash demakdir. Binobarin, inson yaratgan buyuk maʼnaviy obidalar ushbu “eng oliy lahzada” dunyoga kelgan va oʻtkinchi, chopagʻon vaqtga qoʻyilgan sobit haykallar emasmi? Shunday ekan, biz vaqtni oʻz ongimizda qanday tushunsak, oʻqiydigan asarlarimiz, sheʼrlarimizdagi misralarda ham aynan shu tushunchani anglab olamiz. Axir vaqt konsepti bu mavhum tushuncha va uni har bir individ alohida maʼnolarda tushunishi mumkin.

Maqol va iboralarda: Biz yuqorida koʻrib chiqqanimizdek, Vaqtni turli xolatlarda turlicha talqin etishimiz mumkin. Masalan oʻzbek xalq maqollarida vaqt quyidagicha berilgan:

Vaqt ketdi-Baxt ketdi Toj sari taxt ketdi,
Vaqt gʻanimat- oʻtsa nadomat,
Vaqtning ketdi naqding ketdi,
Vaqtli harakat-oxiri barakat,
Yozda kuyungan – qishda suyunar,
Bahorgi begʻamlilik- kuzgi pushmonlik,
Vaqt oʻtgandan keyin qilichingni toshga chop,
Vaqt yetsa, qush ham bolasiga in qurar

XULOSA

Vaqt soʻzining ayni oʻzi ishlatilmagan boʻlsada konsept oʻsha maʼnoda keladi. Bahorgi begʻamlilik-kuzgi pushmonlik maqolini oladigan boʻlsak, bu yerda bahorgi soʻzi bahor vaqtini bahorda kuzning gʻamini qilmasak, yerga, ekin-tekinga ishlov bermasak, kuzga kelib pushaymon boʻlish haqida gap ketgan. Ayni shu maqolga oʻxshash yana bir misol-Yer haydasang kuz hayda, kuz haydasang yuz hayda maqolini koʻrib chiqsak. Agar dehqon qaysi bir sabab bilan kuzda

yer haydamagan bo'lsa-yu, bahorda qayta-qayta ekin maydonini haydagani bilan yaxshi hosil olmasa, yuqorida aytilgan maqol o'z ma'nosida qo'llangan bo'ladi. Ammo biron shaxs tomonidan biron tadbirning amalga oshirilishi kechiktirilsa va keyingi harakatlar natija bermasa "Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" maqoli misol sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu holatda u ko'chma ma'noni anglatadi. Ayni maqoldagi kuz hayda so'z birikmasida-kuzda, kuzgi vaqtda deb ko'chma ma'no bilan keltirib o'tiladi. Bunaqangi maqol va iboralar boshqa xalqlarda ham ko'p uchraydi, ularni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi va aksincha, ularga yaqin ma'no anglatuvchi maqollardan foydalanishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 Телия.В.Н Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты
- 2 Гумбольдт В. - Язык и философия культуры (1985) 370, 377
- 3 Guxman 1961: 129-130, 154.
- 4 В.В.Воробьев Лингвокультурология : (Теория и методы) : 36-37
- 5 В.В.Красных Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология 2002. 12
- 6 Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс 127-129
- 7 Шейгал Буряковская 2002: 9
- 8 Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O`zbek tili va adabiyoti. —Toshkent, 2019. — №3. — B. 15.
- 9 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademnashr 2012. — B.57
- 10 Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79
11. Nizomova, M. B. (2023). Social Classification and Functions of the Term Related to Pedagogy-In the Sociolinguistic Research Center. International Journal of Social Science Research and Review, 6(7), 586-590.
12. Nizomova, M. B. (2023). Narrow and broad interpretation of the contact concept of "pedagogical language" in the social environment of terms related to pedagogy in english and uzbek languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 5(05), 93-99.
13. Abidova, Z. (2023). WORSHIP OF TREES IN CULTURAL PRACTICE OF THE UZBEKS OF THE KHOREZM OASIS. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 10(3), 10-12.
14. Abidova, Z., & Goverdovskaya, E. (2021). Scientific-pedagogical analysis of the problems of personality perfection in the works of Al-Beruni. EPRA International Journal of Research & Development (IJRD). 6.11 (2021): 213, 216.